

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

USMONOV MANSUR KURBONMUROTOVICH

**MALAKALI BOKSCHILARNING IXTISOSLASHTIRILGAN
TAYYORGARLIGINI INDIVIDUAL DARSDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical science**

Usmonov Mansur Qurbonmurotovich

Malakali bokschilarning ixtisoslashtirilgan tayyorgarligini individual darsda
takomillashtirish.....3

Усмонов Мансур Курбонмуротович

Совершенствование специализированной подготовки квалифицированных
боксеров на индивидуальном уроке.....29

Usmonov Mansur Qurbonmurotovich

Improvement of specialized training of qualified boxers
in individual lesson.....57

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

USMONOV MANSUR KURBONMUROTOVICH

**MALAKALI BOKSCHILARNING IXTISOSLASHTIRILGAN
TAYYORGARLIGINI INDIVIDUAL DARSDA TAKOMILLASHTIRISH**

**13.00.04 – Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/849 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.djtsu.uz va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Anashov Valixan Djumaxonovich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	Tajibayev Soyib Samijonovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Turdiyev Farxod Karimovich pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot	Buxoro davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil “_____” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79,717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76; veb-sayt: www.uzdjtsu.uz, e-mail:uzdjtsu@uzdjtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Madaniyat saroyi, 2-qavat, majlislar zali.

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot –resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Metallurglar ko‘chasi, 15-uy. Tel.:(0-370)-717-17 79, 717-27-27, faks.:(0-370) 717-17-76.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “_____” _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil “_____” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M. Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), professor

Sh.Sh. Gaziye
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

J.M. Ishtayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyo boks amaliyotida individual dars jarayonida malakali bokschilarning maxsus chidamlilik qobiliyatini oshirishi hamda ularning iroda mustahkamligi boks mutaxassislarining asosiy diqqat markazida bo‘lish talabini qo‘ymoqda. Rivojlangan xorijiy davlatlarda boks bo‘yicha o‘quv-mashg‘ulotlari, jumladan, individual mashg‘ulot yuklamasini me‘yorlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro miqyosida malakali bokchilarni tayyorlash amaliyotida texnik-taktik tayyorgarlik bilan birga yassi qo‘lqoplarda murabbiy bilan ishlash hamda raqibni modellashtirish vositalarini individual darslarda foydalanish yuqori darajada oshganligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bokschilarga individual mashg‘ulotlarni yassi qo‘lqoplar bilan tashkil etishda mashg‘ulot vosita va usullarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jahon miqyosida bokschilarning sport yutuqlari ortib borayotgani, xalqaro musobaqalarda raqobat kuchayishi murabbiylar oldiga bir qator yangi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Malakali bokschilarni tayyorlashning muhim shakli va usuli sifatida individual mashg‘ulotlar metodikasini takomillashtirish bo‘yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, boks bo‘yicha ko‘pchilik soha mutaxassislari va murabbiylar individual mashg‘ulotdan keng foydalanishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarda individual darslarda yassi qo‘lqoplardan foydalanishga yetarlicha e‘tibor qaratilmaganligi hamda hozirgacha o‘quv-mashg‘ulot jarayonida individual yondashuv asosida ularni qo‘llash me‘yorlari, yassi qo‘lqoplarda bokschilarni tayyorlashning metodik asoslarini yaratish tizimi yetarlicha ochib berilmaganligi hozirgi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Respublikamizda boks sport turi yoshlarning jismoniy va intellektual salohiyatini rivojlantirishda, ayniqsa jismoniy tarbiya va sport davlat siyosatining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. “...yoshlarning boksga bo‘lgan ommaviy qiziqishini inobatga olib, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash va saralash (seleksiya) tizimini yanada takomillashtirish, soha mutaxassislarini tayyorlash va ularning moddiy rag‘batlantirilishini yaxshilash, shuningdek, o‘zbek boksining dunyodagi yetakchiligini saqlab qolish va davom ettirish”¹ borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Mutaxassislar tomonidan respublika va xalqaro musobaqalarda ishtirok etayotgan malakali bokschilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi xalqaro miqyosdagi musobaqalarda yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Tahlillarga asosan, uchinchi raundga kelib aksariyat bokschilarda diqqatni jamlanishi pasayishi, bir harakatdan ikkinchisiga o‘tish tezkorligi, siljib harakatlanishlar tezligi, zarbalar aniqligi kamayishi kuztilmoqda. Bunday holat mazkur jihatdan bokschilarning maxsus chidamlilik qobiliyatini oshirishga yordam beruvchi vosita va metodlarni tanlashda innovatsion yondashuvlarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi natijasi hisoblanadi. O‘zbekistonda bokschilarni tayyorlash tizimida “yassi qo‘lqoplar”da individual

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son “Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.

mashg'ulotlar metodikasi ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Hozirgi kunda, "yassi qo'lqoplar" da individual mashg'ulotlarni tuzish, ilmiy asoslangan holda tashkil etish masalasi bilan bog'liq ishlar deyarli mavjud emas. Mazkur muammolarni bartaraf etishda yuklama hajimining muntazam oshib borishi, harakat amallari shiddatining o'sishi va ruhiy zo'riqishi oldini olishda "yassi qo'lqoplar" bilan individual mashg'ulot yuklamalarini me'yorlash, bajarilgan ishga nisbatan javob reaksiyasini hisobga olgan holda amalga oshirish hozirgi kunda eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 29-apreldagi PQ-5099-son "Boksni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5281-son "2024 yil Parij shahrida (Fransiya) bo'lib o'tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o'yinlariga O'zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to'g'risida"gi qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" bilan bog'liq ustuvor yo'nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Hozirgi vaqtda sport mashg'ulotlari jarayonida bokschilarning yuqori ishchanlik qobiliyatini ta'minlashga qaratilgan metod va vositalar hamda mashg'ulot yuklamalari, bokschilarni jismoniy tayyorgarligi darajasini nazorat qilish tizimi o'rganib chiqilgan bo'lib, ularga doir bir qator tadqiqotlar mavjud. Sport mashg'ulotlari jarayonida malakali bokschilarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish muammolari bo'yicha bir qator ilmiy ishlar bajarilgan. Xususan, Respublikamiz olimlaridan F.K.Turdiyev, R.D.Xalmuxamedov, V.N.Shin, B.U.Kaipov, A.X.Ikramov, S.S.Tajibayev, G'.Q.Rajabov, V.D.Anashov malakali bokschilarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish xususiyatlarini tadqiq qilishgan².

MDH olimlaridan boksdan texnik va taktik tayyorlash asoslari, o'smir bokchilarda maxsus jismoniy tayyorgarlik va hujum texnikasini rivojlantirish, bokchilarni tayyorlashda zamonaviy tizimlarni ishlab chiqish, malakali bokchilarni tayyorlash uslubiyati va maxsus chidamlilikni rivojlantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, boks sport turida aylanma mashg'ulot olib borishning amaliy tavsiyalarini ishlab chiqish bo'yicha V.A.Oskolkov, O.V.Menshikov, Yu.A. Shulika,

² Турдиев Ф.К. Бокс тренерининг индивидуал дарс олиб бориш жараёнидаги махсус малакаларини шакллантириш: Дис. ...канд.пед.наук - Т., 2002. – 132 с.; Халмухамедов Р.Д. Шин В.Н.Каипов Б.У. Икромов А.Х. «Построение предсоревновательного этапа подготовки боксеров-юниоров к ответственным соревнованиям». Ташкент, 2006, - 49 с.; Халмухамедов Р.Д. Технология подготовки единоборцев на этапах годового цикла: автореф. дисс. .. д-ра пед.наук.-Т., 2009. - 56 с.; Шин В.Н. Технология планирования подготовки боксеров. Учебное пособие. Ташкент – 2008. - С.95-100.; Xalmuxamedov R.D., Shin V.N., Tajibayev S.S., Rajabov G'.Q., Anashov V.D. Bokschilarning sport-pedagogik mahoratini oshirish. Darslik. Toshkent, – 2020. - 634 b.

A.A. Lavrov, S.M.Axmetov, V.N.Filimonov, V.A.Markov, V.L.Shteynbax, N.A.Podrezov, A.A.Nikulichuyev, V.A.Kiselev, V.N.Cheremisinov, B.S.Baykulbayev, M.D.Kudryavsyev, V.A.Kuzmin, A.V.Gaskov, R.A.Zinaturov, S.A.Sergeyev, N.T.Rusakov, V.A.Kiselevlar tomonidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borishgan.³

Jahon miqyosidagi olimlardan L.S.Khodasevich, A.L.Khodasevich, D.Lukianov, K.Bespanskaya-Paulenko, V.Gogunskii, O.Kolesnikov, A. Moskaliuk, K. Dmitrenko, S.Massilo Savic, J.Kessler, W.Edwards, J. Kessler, M. Smith, V. Širilar bokschilarni tayyorlashda model ko‘rsatkichlarini aniqlash va tayyorlash tizimini ishlab chiqish, to‘gridan va yondan zarba berish texnikasini takomillashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirish strukturasi ishlab chiqish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan⁴.

Mavjud adabiyotlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, mashg‘ulot jarayonida malakali bokschilarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish muammolariga bog‘ishlangan ko‘plab tadqiqotlar mavjud, ammo bokschilarda ixtisoslashgan faoliyatining turli xil shakllarida, jumladan, “yassi qo‘lqoplar”da individual darslarda uning ishchanlik qobiliyatini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlarga kam e‘tibor qaratilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari konseptsiyasi va istiqbol rejasining V.33/3 “Sport faoliyatining muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beruvchi malakali bokschilar shaxsiyatining individual-psixologik (xarakter, irodali

³ Осколков В.А. Передвижения по рингу – основа технико-тактической подготовки в боксе. – Волгоград, 2007. – 23 с.; Меньшиков О.В. Специальная физическая подготовка боксеров-юниоров атакующего и контратакующего стиля на предсоревновательном этапе: дис. ... канд. пед. наук / Меньшиков Олег Владимирович. – М., 2008. – 124 с.; Шулика Ю.А. Бокс. Теория и методика. Ю.А.Шулика, А.А.Лавров, С.М.Ахметов [и др.] – М., 2009. – 25 с.; Филимонов В.И. Современная система подготовки боксеров. – М.: ИНСАН, 2011. – 480 с.; Марков В.А.. Бокс. Энциклопедия. Составители. В.А.Марков, В.Л.Штейнбах. – М., 2011.; Штейнбах В.Л. Смерть на ринге. Криминальные сюжеты из жизни профессионального бокса. – М., 2016. – 26 с.; Подрезов Н.А. На ринг приглашаются бауманцы. – М., 2011. – 24 с.; Никуличев А.А. Технология развития специальной выносливости профессиональных боксеров. Ученые записки университета имени П.Ф.Лесгафта, № 10, 2012, - С.120-126; Киселев В.А., Черемисин В.Н. Физическая подготовка боксера. – М., 2013. – 25 с.; Байкулбаев Б.С. Особенности развития выносливости и рекомендации по проведению круговой тренировки в боксе: учебное пособие. – Алматы: Казахский национальный университет им. аль-Фараби, 2014. – 80 с.; Кудрявцев М.Д. Современные психолого-педагогические аспекты и технологии тренировочно-соревновательной деятельности в спортивных единоборствах / М.Д.Кудрявцев, В.А.Кузьмин, А.В.Гаськов [и др.]. – Красноярск, 2017. – 22 с.; Лукьяненко В.П. Специально-силовая подготовка в боксе // МНКО. - 2018. -№ 1 (68). - С. 46-47.; Зинатурова А.А. Оценка эффективности комбинированного подхода в тренировочном процессе боксеров // Физическая культура, спорт. Туризм. Двигательная реакция. 2019. - С.76-78; Сергеев С.А. Основы техники бокса. – Минск, 2020. – 28 с.; Русаков Н.Т., Оценка эффективности программы блоковой подготовки квалифицированных боксеров тяжелых весовых категорий // Ученые записки университета имени П.Ф. Лесгафта. - 2020. - № 7 (185). - С.338-344; Киселев В.А. Средства и методы специальной подготовки боксера //Теория и методика ударных видов спортивных единоборств. Материалы Всероссийской научно-практической конференции с международным участием, посвященной памяти профессора, д-ра. пед. наук, ЗМС СССР, ЗТ СССР, К.В. Градополова. – М.: РГУФКСМиТ, 2021. - С.57-66.

⁴ Khodasevich L. S. Fatal Injuries in Sports [Text] / L. S. Khodasevich, A. L. Khodasevich, S. G. Kuzin // European Journal of Physical Education and Sport. – 2013. – Vol. 1, Issue 1. – P. 38–48.; Lukianov D. Development of the markov model of a project as a system of role communications in a team [Text] / D. Lukianov, K.Bespanskaya-Paulenko, V. Gogunskii, O. Kolesnikov, A. Moskaliuk, K. Dmitrenko // Eastern-European Journal of Enterprise Technologies. – 2017. – Vol. 3, Issue 3 (87). – P. 21–30.; Massilo S. Savic. Boks za obrazovanje trenera. – Beograd: Novisad, 2000. – 400 p.; Edwards W. Art of Boxing and Manual of Training. – Prometheus Press, 2008., Boxing psychology – why fights are won and lost in the head / J. Kessler, M. Smith // Journal of Shenyang Institute of Physical Education. – 2008. – Vol. 27. – Issue 2. – P. 53–58.; Širi V. Influence of some morphological characteristics on performance of specific movement structures at boxers / V. Širi, S. Blaževi, S. Dautbašić // Acta Kinesiológica. – 2008. – P. 71–75.

fazilatlar, hissiy tuyg'ular va motivatsiya) xususiyatlarini ishlab chiqish" mavzusi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi "Yassi qo'lqoplar"da individual darslar jarayonida bokschining ishchanlik qobiliyatini oshirish usullarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sportchilarning mashg'ulotlarini o'zlashtirish imkoniyatlari "yassi qo'lqoplar"da bokschilar bilan o'tkaziladigan individual darslarini takomillashtirish; individual darslarda bokschilarning ish va dam olish rejimlarini aniqlash va bokschilarning texnik-taktik tayyorgarligini "yassi qo'lqoplar"dan foydalanib takomillashtirish;

bokschilarning yuqori darajadagi ish qobiliyatini aniqlash va sportchilarning funksional tayyorgarligini oshirish;

bokschilar jangovor harakatlarini bajarish vaqtida harakat faolligini aniqlash va maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish metodikasini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyatining boks bo'yicha terma jamoasining malakali bokschilarini tayyorlash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini malakali bokschilarning "yassi qo'lqoplar"da individual dars vositalari va metodlarini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adabiyotlar va normativ huquqiy-me'oyriy hujjatlarni tahlil qilish va umumlashdirish, murabbiylar va mutaxassislar bilan so'rovnomalar o'tkazish, pedagogik kuzatuvlar, sport-pedagogik testlash, psixofiziologik testlash, pedagogik tajriba, tadqiqot materiallarini statistik ishlab chiqish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bokschilar bilan o'tkaziladigan "yassi qo'lqoplar"da individual darslarning tasnifiy modelini mashg'ulotlar jarayoniga singdirish hisobiga bokschilarning zarbalar aniqligi va texnik-taktik harakatlarni o'zlashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

individual darslarda bokschilarning ish va dam olish rejimlari (uzluksiz ishning ayrim yuklamalari me'yorlari, ular orasidagi dam olish intervallari hamda kichik tanaffuslar miqdori va davomiyligi), mashg'ulot yuklamasi hajmi ("yassi qo'lqoplar"da individul darsning ish vaqti, zarbalarning umumiy soni, vaqt oralig'ida bosib o'tilgan metrlar soni) hamda harakat faoliyati shiddat-meyorlarini ishlab chiqish hisobiga bokschilarning texnik-taktik va jangovor tayyorgarligi takomillashtirilgan;

bokschilarning yuqori darajadagi ish qobiliyatini aniqlash uchun organizmni fiziologik xususiyatlarini (yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari) yaxshilashga qaratilgan bokschi holatini fiziologik baholashda harakatning ishlash davomiylik reaksiyasini ishlab chiqish hisobiga sportchilarning funksional tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

bokschilar jangovor harakatlarini bajarish vaqtida harakat faolligini aniqlash uchun tik turgan holda zarbalar, oldinga qadam bilan zarbalar va oldinga sakrash bilan zarbalarini uzluksiz ish dozasini qo'shish hamda mashg'ulot olib borish shiddat me'yorlarini turli davomiylikdagi dam olish tanaffuslarini o'zgartirib

qo'llash hisobiga bokschlarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish metodikasi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ishni dam olish tanaffuslari bilan almashib bajarishning optimal rejimlari ishlab chiqilgan bo'lib, ular "yassi qo'lqoplar"da individual darslarda bokschlarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish;

"yassi qo'lqoplar"da individual darsda bokschining mashg'ulot yuklamasi hajmi va shiddatini hisobga olish metodi amaliyotga joriy qilingan bo'lib, bu bajarilgan ishning nafaqat sifat, balki miqdoriy tavsiflarini samarali boshqarishga, shuningdek, yuklamalarning turli me'yorlarining sportchilar organizmi funksional holatiga ta'sirini obyektiv baholash;

"yassi qo'lqoplar"da individual darslarda bokschlarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish metodikasi samaradorligi pedagogik tajribada asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi ushbu muammo bo'yicha adabiyotlar va hujjatli manbalarning nazariy tahlili, pedagogik tajriba o'tkazilganligi, muvaffaqiyatli aprobatsiya va tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, shuningdek, natijalarning to'g'ri statistik ishlab chiqilganligi bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "yassi qo'lqoplar"da individual darslarda bokschining maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirishning ishlab chiqilgan metodikasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi ilmiy asoslab berilganligidan iborat, tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar boks nazariyasi va metodikasi sohasida mavjud bo'lgan axborotlar tanqisligini to'ldiradi va sport mashg'ulotlari nazariyasini yuqori malakali bokschlarning mashg'ulot yuklamasini nazorat qilishning zamonaviy vositalari, shuningdek, sportchilar tayyorgarligining turli tomonlarining model tavsiflari to'g'risidagi ma'lumotlar bilan boyitadi, o'tkazilgan tadqiqot natijalari ko'p yillik tayyorgarlikning barcha bosqichlarida sportchilar bilan ishlaydigan mutaxassislar uchun qiziqish uyg'otishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki tadqiqotlar jarayonida "yassi qo'lqoplar"da individual darslarda bokschlarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirishning aniq metodikasi ishlab chiqilgan, sinovdan o'tkazilgan va taqdim etilgan, shuningdek, sportchi organizmining bajarilayotgan ishga reaksiyasi to'g'risidagi tezkor axborot metodlari ishlab chiqilgan, ushbu metodika amalda qo'llanilib, viloyatlar terma jamoalari va mamlakat terma jamoalari ishida muvaffaqiyat bilan o'zini ko'rsatgan, tadqiqot davomida olingan ilmiy ma'lumotlardan "Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi", "Tanlangan sport turi (boks) nazariyasi va metodikasi" va boshqa sohaga tegishli fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Malakali bokschlarning "yassi qo'lqoplar"da individual darslarda ishchanlik qobiliyatini oshirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot va pedagogik tadqiqot natijalarini qiyosiy tahlil qilish asosida:

"yassi qo'lqoplar"da bokschilar bilan o'tkaziladigan individual darslarini takomillashtirish (ixtisoslashtirilgan tayyorgarlikning ustuvor y o'nalishi bo'yicha, pedagogik yo'nalishi bo'yicha, texnik-taktik takomillashtirish metodlari bo'yicha)

modelini mashg'ulotlar jarayoniga qo'llash bo'yicha takliflar Surxondaryo viloyati terma jamoasi malakali bokschilarining mashg'ulotlari jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 6-sentabrdagi № 03-01/04/20/9120-raqamli dalolatnomasi). Natijada, yuqori malakali bokschilarda reaksiya tezkorligi va aniqligi ko'rsatkichlari 12% ga oshgan, musobaqa faoliyati natijadorligi 18% ga oshgan;

Surxondaryo viloyati terma jamoasining malakali bokschilarini tayyorlash jarayoniga bokschilarning "yassi qo'lqoplar"da individual darslarda bokschilarning ish va dam olish rejimlarining (uzluksiz ishning ayrim yuklamalari me'yorlari, ular orasidagi dam olish tanaffuslari hamda kichik tanaffuslar miqdori va davomiyligi, ish me'yorlarining eng samarali davomiyligi), shuningdek, mashg'ulot yuklamasi hajmi ("yassi qo'lqoplar"da individul darsning ish vaqti, zarbalar va ularni bajarish usullarining umumiy soni, vaqt oralig'ida bosib o'tilgan metrlar soni) hamda harakat faoliyati shiddat-meyorlarini (zarbalar va vaqt oralig'ida bosib o'tilgan metrlar soni) takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023- yil 6-sentabrdagi № 03-01/04/20/9120-raqamli dalolatnomasi). Natijada, malakali bokschilarning musobaqa faoliyati natijadorligi 17% ga, texnik-taktik harakatlar natijadorligi 15% ga oshirilgan;

bokschilarning yuqori darajadagi sport ish qobiliyatini aniqlab berish, ularning organizmini optimal holati, fiziologik xususiyatlarini (yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari) yaxshilashga qaratilgan sifat va son modelini ishlab chiqish bo'yicha uslubiy tavsiyalar "Boks nazariyasi va amaliyoti" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o'rta ta'lim vazirligining №233-0044 raqamli ruxsatnomasi). Natijada ekstremal sharoitlarda chalg'ituvchi omillarga barqarorlik 16% ga oshgan;

jangovor harakatlarini bajarish vaqtida bokschining harakat faolligini aniqlash uchun tajriba sinov rejalashtirish jadvaliga 30 daqiqalik dam olish, 4 ta besh daqiqalik uzluksiz ish dozasini qo'shish va mashg'ulot olib borish shiddat me'yorlarini (joyidan turib zarba berish (25 zarba/daq.), oldinga bir qadam bilan (15 zarba/daq.), oldinga sakrab (15 zarba/daq.) va oldinga bir qadam sakrash bilan (10 zarba/daq), turli davomiylikdagi dam olish tanaffuslari (0,5 daq, 1 daq, 1,5 daq va 3 daqiqa) o'zgartirib qo'llash bo'yicha tavsiyalar Surxondaryo viloyati terma jamoasi malakali bokschilarining mashg'ulotlari jarayoniga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 6-sentabrdagi № 03-01/04/20/9120-raqamli dalolatnomasi). Natijada sportchilar, yoshlar o'rtasidagi Jahon chempionatida (Ispaniya 2022) 1 ta bronza, Osiyo chempionatida 2022-yili 2 ta oltin (Abdumurodov Dilshod Qaxxorovich va Nortojev Xo'janazar Shavkat o'g'li) hamda 1 ta kumush va 1 ta bronza medali qo'lga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot materiallari 2 xalqaro, 2 respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy-metodik ish, jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 23 ta ilmiy maqolalar va tezislar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarida

6 ta maqola (4 respublika, 2 xorijiy jurnal), 5 xorijiy jurnal, xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 8 ta va respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarda 4 ta tezislar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rt bob, xulosa, amaliy tavsialar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 130 kompyuter matnida taqdim etilgan sahifadan iborat, 9 rasm, 11 jadvalni o'z ichiga olgan. Bibliografik ro'yxat 131 ta manbani o'z ichiga olgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi kursatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yassi qo'lqoplar” bilan individual darsda bokschilarni tayyorgarligini takomillashtirish muammolariga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili**” deb nomlangan birinchi bobida bokschilarni tayyorlash tizimida individual darslarning samaradorligi, individual darslarda bokschilarni texnik-taktik harakatlarini takomillashtirish vositalari va uslublari, individual darslarda “yassi qo'lqoplar”dan foydalanishning zamonaviy uslubiyati, bokschilarning maxsus ishchanlik qobiliyatini oshirish yo'llari va ularni ilmiy asoslash masalalari yoritilgan.

Ushbu sport turidagi bu muammo nafaqat “yassi qo'lqoplar” bo'yicha individual mashg'ulotlarda, balki bokschilarni tayyorlashning boshqa shakllari va usullariga nisbatan ham ochilmaganligi aniqlandi. “Yassi qo'lqoplar”da individual darsning zamonaviy metodikasi rivojlanishidagi asosiy yo'nalishlar tahlil qilingan va kelgusi tadqiqotlarni talab qiluvchi hal etilmagan masalalar dolzarb ekanligini o'rganilgan adabiyotlar davomida tahlil etildi.

Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili shuni aniqlashga imkon berdiki, boks rivojlanishining hozirgi zamon bosqichida “yassi qo'lqoplar”da individual dars yuqori malakali bokschilarni tayyorlashda keng tarqalgan va eng samarali shakl va metodlaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mutaxassislarining e'tirof etishicha, sportchilarning yuqori darajadagi maxsus ishchanlik qobiliyatini saqlab turishga qaratilgan “yassi qo'lqoplar”da individual darsni samarali tuzish, uni ilmiy asoslangan holda tashkil etish masalasi bokschilarni ixtisoslashtirilgan faoliyatini oshirishning metodikasi zarurligini ta'kidlab o'tishgan (A.Yu.Aleksandrov, A.Atilov, V.S.Keller, S.S.Naumov, T.Babb, M.Bastian, W. Edvards).

Bokschilar texnikasini mustahkamlashga qaratilgan standart sharoitlarni yaratish uchun individual yondashuv musobaqadan ancha oldin qo'llanilishi zarur. Ammo musobaqa janglarining haqiqiy sharoitida zarbalarning aksariyati maqsadni topa

olmaydi. Musobaqa yaqinlashganda, mashg'ulotning o'zi o'zgarmaydi, ammo uning hajmi, shu bilan birga, ko'lami sezilarli darajada oshadi. Sababi faqat psixologik tayyorgarlik bilan bog'liqdir. Soha mutaxassislaridan R.D.Xalmuxamedov, F.K.Turdiyev, S.S.Tajibayev, G.K.Rajabov, Q.A.Umarovlarning ta'kidlashicha, musobaqa qancha yaqin bo'lsa, sportchiga shunchalik ko'p e'tibor berilishi kerak va bu e'tibor u bilan "yassi qo'lqoplar" da ishlagan vaqt orqali ifodalanadi, chunki bu holatda murabbiy sportchiga yaqinroq bo'ladi.

Shunday qilib, hozirgi vaqtda "yassi qo'lqoplar" bo'yicha individual mashg'ulot yuqori malakali bokschilarning o'quv va jismoniy-psixologik tayyorgarlik mashg'ulotlar jarayonida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Shu bilan birga, o'tmishdagi no'anaviy amaliyotdan farqli o'laroq, "yassi qo'lqoplar" bo'yicha individual mashg'ulot faqat sportchining mahorati va emotsional barqarorligini texnik jihatdan takomillashtirish usuli sifatida qaralgan bo'lsa, bu bosqichda u bokschi ixtisoslashtirilgan tayyorgarligining murakkab vazifalarini hal qiladi va bu vazifalar orasida "bokschi va murabbiy" munosabatlari ham munosib o'rin tutadi. "yassi qo'lqoplar" bo'yicha individual mashg'ulotning bunday ko'p qirraliligi, uni xorijlik mutaxassislar o'tkazayotgan mashg'ulotlardan yaxshi ajratib turadigan bo'lsa, o'zbekistonlik murabbiylarga o'quv janglari bilan birgalikda yuqori malakali bokschilarni tayyorlash dolzarb ekanligini asoslaydi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqotning metodlari va tashkil etilishi**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot usullarini tanlashda "yassi qo'lqoplar" bo'yicha individual darsda bokschining harakatlari tabiatining xususiyatlari hamda tajribalarning mashg'ulot va musobaqalarda sportchilar faoliyatining tabiiy sharoitlariga yaqinlashtirish muammolari yoritilgan. Masalani bunday shakllantirilishi tadqiqotning pedagogik va fiziologik usullarini bir vaqtning o'zida qo'llashga imkon beradi.

Tadqiqotlar to'rtta asosiy bosqichda olib borilgan bo'lib malakali bokschilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida tashkil qilingan:

Birinchi bosqich – tanlangan mavzu bo'yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar o'rganib chiqildi, tadqiqotning to'g'ri uslublari va uslubiy usullarni tanlovi amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich – oliy sport mahoratini oshirish bosqichida malakali bokschilarni jismoniy tayyorgarlik darajasi va ishchanlik qobiliyatlari o'rganib chiqildi.

Uchinchi bosqich – ixtisoslashtirilgan tayyorgarligini individual darslarda takomillashtirish uslubiyatining asosiy holati ishlab chiqildi va asoslandi.


To'rtinchi bosqich – olingan tajriba ma'lumotlarni matematik statistika usullari orqali qayta ishlab chiqish o'tkazildi.

Tadqiqotlarda Termiz olimpiya va paraolimpiya sport turlariga tayyorlash markazida yuqori malakali sportchilari, Surxondaryo viloyati yakkakurash sport turlariga ixtisoslashtirilgan SM, Jarqo'rg'on tumani sport maktabi bokschilari ishtirok etdilar.

Ushbu bosqichdagi tadqiqotlarda "yassi qo'lqoplar" bo'yicha individual mashg'ulotda yuklamaning umumiy hajmini aniqlash uchun u tomonidan muntazam qadam, yon qadam, ko'ndalang qadam, yonga qadam bilan berilgan zarbalarning umumiy soni, sakrashlar parametrlari shartli ravishda olindi. Ushbu harakatlar texnik usullar va taktik harakatlarga bo'linmadi va yuklamalar hajmi haqidagi ma'lumotlarni

hamda harakat faoliyatining shiddati aniqlab berilgan; mashg'ulot va musobaqa janglaridagi bokschi yuklamasining qiyosiy baholanishi amalga oshirilgan.


Trenerlar o'rtasidagi so'rov va "yassi qo'lqoplar"da individual mashg'ulotlarini pedagogik kuzatishlar natijalari bizga boks amaliyotida qo'llaniladigan shunday individual mashg'ulotlarining tipik guruhlari to'g'risidagi tasavvurlarni, shuningdek, ularni tasniflash joiz bo'lgan mezonlarni birmuncha kengaytirishga imkon berdi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Boks bo'yicha "yassi qo'lqoplar"da individual mashg'ulotlarning tasnifi madeli


Boks bo'yicha tajribali murabbiylarning sohaga doir anketa so'rovi ma'lumotlari tahlili shuni tasdiqlaydiki, individual dars bokschilar tayyorgarligining eng muhim tomonlaridan biridir. E'tirof etish lozimki, bokschilar mahorati oshib borgan sari tayyorgarlik jarayonida individual darslarni ulushi ko'payadi. Shuni dalil sifatida keltirish mumkinki, 75,4% oliy toifali trenerlarning fikricha, individual darslar malakali sportchilarni tayyorlashda yetakchi o'rinni egallaydi. Undan tashqari, bokschilarning tayyorgarlik darajasi qancha yuqori bo'lsa, individual mashg'ulotlar shuncha katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Individual darslar jarayonida trenerlar va sportchilarning amaliy faoliyatini tadqiq qilish va shaxsiy tajriba natijasida “yassi qo‘lqoplar”da individual darsda boksning ish va dam olishini tashkil etishning uchta asosiy (eng tipik bo‘lgan) rejimi aniqlandi: deyarli uzluksiz ish rejimi (2-rasmga karang), murakkab ish rejimi (3-rasmga qarang) va uzlukli-takroriy rejim (4-rasmga qarang), bunda oxirgisi mahalliy trenerlarimiz orasida eng keng tarqalgani hisoblanadi.



2-rasm. “Yassi qo‘lqoplar” da individual darsda boksning deyarli uzluksiz ish va dam olish rejimi hamda yurak qisqarish sur‘ati dinamikasi (1-razryadli sportchi)


Yuqorida keltirilgan barcha ma‘lumotlar individual darslarda qo‘llaniladigan sportchilarning ish va dam olish rejimlari hamda ularda beriladigan mashg‘ulot yuklamalarining katta variantlilikidan dalolat beradi.



3-rasm. “Yassi qo‘lqoplar”da individual darsda boksning murakkab ish va dam olish rejimi hamda yurak qisqarish sur‘atining o‘zgarish dinamikasi (sport ustasi bo‘lgan sportchi)

Ilg‘or amaliy tajriba va shaxsiy tadqiqotlarimizni umumlashtirish individual darslarda (texnika va taktika darslarida) qo‘llaniladigan sportchilarning ish va dam olish rejimlari hamda ularda beriladigan mashg‘ulot yuklamalarining katta

variantliligidan darak beradi (1-jadvalga qarang), shuningdek, bu ikkita tipik individual darslarning davomiyligi deyarli bir xil – 21 daq. (o‘rtacha ma’lumotlar).



4-rasm. “Yassi quloqlar”da individual darslarda bokschiing uzluqli ish va dam olish rejimi hamda yurak qisqarish sur’atining o‘zgarish dinamikasi (sport ustaligiga nomzod sportchi)

“Yassi qo‘lqoplar”da individual darslarda ko‘p sonli betartib (sportchining o‘zi tomonidan hosil qilinadigan) kichik tanaffuslar mavjudligi aniqlandi, ularning umumiy davomiyligi ayrim hollarda dars ish vaqtining 10 % ga yaqin vaqtni tashkil etadi.

Taxmin qilish lozimki, bokschi individual dars jarayonida (mashg‘ulot yuklamalarining ayrim me‘yorlarida) qisqa muddatli faoliyatni kichik dam olish tanaffuslari bilan (o‘rtacha 10 soniya. atrofida) muntazam almashib bajarish evaziga aytarli toliqishsiz nisbatan uzoq va shiddatli (4 va ko‘proq daqiqa) bajara olishi mumkin. Buning hammasi trenerlarni individual dars jarayonida ish va dam olish “mikrorejimlari” to‘g‘risidagi masalaga alohida e‘tibor bilan yondashishga majbur qiladi.

“Yassi qo‘lqoplar” da individual darsda uzluksiz ish me‘yorlarining samarali davomiyligini aniqlash maqsadida tabiiy sport faoliyati sharoitlarida (boks zalida) o‘tkaziladigan “yassi qo‘lqoplar” da ishlash jarayonida ish va dam olish rejimlarining 8 xil variantlari tekshirildi. Barcha variantlarda “yassi qo‘lqoplar”da ishlash umumiy vaqti $30 \pm 2,5$ daq. ni tashkil etdi, ulardan $20 \pm 1,5$ daq. ishga va o‘rtacha 4 daq. dam olish tanaffuslariga ajratildi. Barcha o‘rganilayotgan rejimlarda ish va dam olish vaqti orasida bir xil nisbat bo‘lishiga rioya etish maqsadida ayrim ish davrlari va ular orasidagi dam olish tanaffuslari davomiyligiga ba’zi tuzatishlar kiritildi (soniyalar qo‘shildi). Bunda “yassi qo‘lqoplar”da ishlashda bokschiing

ixtisoslashtirilgan faoliyati sifatini aks ettiruvchi faqat ayrim – eng umumiy omillar e’tiborga olindi.

Ushbu omillar sifatida quyidagi ko‘rsatkichlar tanlab olindi: harakat amallarini bajarish tezkorligi (HNV), zarbalar berish aniqligi (ZA) va muammoli vaziyatlarda harakatlarni to‘g‘ri tanlash (TT) (jangovor mo‘ljal olish).

1-jadval


Ustivor texnik-taktik va taktik – jangovor yo‘nalishidagi “yassi qo‘lqoplar”da individual darslarning tavsifi

T/r	Ish vaqti va dam olish tartibining xususiyatlari		Texnika darsida	Taktika darsida	Ish faoliyati harakat hajmining xususiyatlari	Texnika darsida	Taktika darsida			
1	Darsing umumiy borishi		21'	21'	Zarbalar soni	Chap va o'ng q o'l zarbalar	114	119		
2	Uzliksiz ish miqdori	Jami	6	5		Odiy qadam	194	168		
		Umumiy davomiyligi	16' 50''	14' 35''		Yon qadamlama	44	43		
		O'rtacha davomiyligi	2'45''	2'55''						
3	Dam olish tanafuslar	Jami	4	3		Kesishgan qadamlar	41	59		
		O'rtacha davomiyligi	30''	53''		Orqa qadam bn	113	139		
		Umumiy davomiyligi	2'	2' 40''						
4	Mikrotanafuslar	Murabbiy tomonidan	Jami	6		10	Sayd-step	20	25	
			O'rtacha davomiyligi	10''		12''		Sakrash bn	12	16
			Umumiy davomiyligi	1'		2'				
		Sportchi tomonidan	Jami	9		15	Umumiy soni	538	569	
			O'rtacha davomiyligi	8''		10''		Zarbalar daqiqada	36	39,8
			Umumiy davomiyligi	1'12''		2' 32''				
		Umumiy soni	15	25	Yu/u pulsi	Ish jarayonida	154	166		
		Umumiy davomiyligi	2' 12''	4' 32''		Dam olish va tanafus	124	126		
5	Umumiy dam olish		4' 12''	7' 12''						
6	Umumiy dars aktivligi		16' 48''	13'48''	O'rtacha darajada	139	143			
7	Dars zichligi %		78,47	64,19						


Izoh: Mashg‘ulotlar daqiq va soniyalarda ifodalangan.

Qandaydir funksiyaning pasayishi boshqasining yuqori darajada namoyon bo‘lishi bilan qoplanadi. Masalan, jangovor harakatlarni bajarishda yetarlicha yuqori


tezlikka ega bo'lmagan bokschi ushbu o'zining kamchiligini o'z vaqtida harakat qilish va paytini tanlash hissi bilan qoplaydi, bu bokschiga yuqori natija keltiradi (5-rasm A, B, V, G).




A. ZA- zarbalar aniqligi



B. TT –tanlash to'g'riligi



V. HNV – harakatlarning nisbiy vaqti



G. KIQK – kompleks ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichi

Izoh: ZA- zarbalar aniqligi (% da); TT –tanlash to'g'riligi (%da); HNV – harakatlarning nisbiy vaqti (% da); KIQK – kompleks ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichi.

— “Yassi qo'lqoplarda” texnik y o'nalishdagi ish;

— “Yassi qo'lqoplarda” taktik y o'nalishdagi ish.

5-rasm. ZA, TT, HNV, KIQK ning ish davomiyligiga qarab o'zgarish chizmasi

O'rganilayotgan parametrlarni bir vaqtda kompleks tavsiflash uchun bokschi maxsus ishchanlik qobiliyatining kompleks ko'rsatkichi deb nomlangan tushuncha kiritildi, u quyidagi formula orqali ifodalanishi mumkin:

$$KIQK = 10^{-6} ZA \times TT \times HNV$$

Bu yerda KIQK – kompleks ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichi ($0 \leq KIQK \leq 1$);

10^{-6} - me'yorlovchi koeffitsient;

ZA – zarbalar aniqligi % da;

TT – tanlash to'g'riligi % da;

HNV – harakatlarning (jangovor harakatlarning) nisbiy vaqti % da.

Ushbu formulaga har xil ko'rsatkich uchun alohida olingan ma'lumotlarni kiritib, biz tomonimizdan tahlil qilinayotgan ish rejimlariga bog'liq holda bokschi maxsus ishchanlik qobiliyatining kompleks ko'rsatkichini, alohida va taktik yo'nalishdagi ish uchun ko'rsatkichlarni olamiz. KIQK 0-dan 1-gacha atrofida o'zgarishini inobatga olib, ushbu ko'rsatkichning yo'l qo'yiladigan og'ishlari kiritiladigan eng quyi chegaralari 0,47 darajasida o'tadi, bu tahlil qilinayotgan parametrlarning alohida – ZA, TT, HNV ning quyi chegaralariga bog'liq ($10^{-6} \times 80\% \times 90\% \times 65\%$). 0,47 dan past bo'lmagan qiymatlarga ega HNV ni aniqlashda har bir tekshirilayotgan funksiya uchun (ZA, TT, HNV) aniq me'yorlar belgilanadi.

Agar ulardan istalgan biri ushbu me'yordan past bo'lsa, boshqalari yetarlicha yuqori bo'lsa ham, bu kompleks sinov ma'lumotlari bizning tajribamizda hisobga olinmadi.


Shunday qilib me'yorlar quyidagilardir: ZA – 64 % dan kam emas; TT – 72 % kam emas; HNV – 52 % dan kam emas. Savolning bunday q o'yilishi, masalan, tanlash to'g'riligi va aniqlikda yaqqol yuqori ko'rsatkichlarda oldinga qadam tashlab to'g'ridan zarbani juda sekin bajarish mumkinligini inkor etardi.

5-g - rasmda KIQK o'rtacha qiymatlarining "yassi qo'lqoplar" da texnik va taktik yo'nalishdagi uzluksiz ish davomiyligiga bog'liqligi tasvirlangan. Aniqlanishicha, eng yaxshi ko'rsatkichlar "yassi qo'lqoplar" da ishlashning u yoki bu variantlarida) eng qisqa vaqt ichidagi ish variantlarida olinadi. O'tkazilgan tadqiqotlar davomiyligi har xil bo'lgan "yassi qo'lqoplar" da uzluksiz ishlash variantlarining bokschi ixtisoslashtirilgan sifatleri hamda ko'nikmalarining namoyon bo'lish samaradorligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashga imkon berdi.

mashg'ulot va musobaqa janglarida jang boshlanishidan oldin va tugagandan so'ng bokschilarda YuUS darajasining individual tebranishlari katta chegaraga ega. Shuningdek, shu darajadagi variatsiya koeffitsienti ham ajralib turadi.

Turli ahamiyatga ega (musobaqa va mashg'ulotlar) janglarni o'tkazishda yuqori malakali bokschilarda tomir urish sonining mutlaq va o'rtacha darajasi qiyosiy ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bu janglar organizmga kompleks ta'sir qilishi natijasida sportchi yurak-qon tomir tizimining turli reaksiyalarini keltirib chiqaradi (6-rasmga qarang).

Bir daqiqa ichida tomir urish soni



Izoh: Natijalarni hisobga olmagan holda mashg'ulot janglari
 Natijalarni hisobga olgan holda mashg'ulot janglari - "bayonnoma uchun janglar"
 Musobaqa janglari

6-rasm. Surxondaryo viloyati terma jamoasi bokschilarida turli ahamiyatga ega janglar tugagandan keyin yurak qisqarish sur'atining o'rtacha darajasi

Janglar boshlanishidan oldin daqiqada 80 dan 160 zarba chegarasida (125 zarba/daq.) hamda jang tugagandan keyin (177 zarba/daq.) daqiqaga 150 dan 195 zarba chegarasidagi tomir urish sonining eng yuqori darajasi musobaqa janglarida qayd qilindi. Og'irligi bo'yicha keyingisi natijalar hisobga olinadigan mashg'ulot (erkin janglar) hisoblanadi (janglargacha daqiqaga 80 dan 111 tagacha

zarba chegarasida (97 zarba/daq.), janglardan so‘ng – daqiqaga 147 dan 169 zarba chegarasida (160 zarba/daq.).

“Sport faoliyati jarayonida boksning ishchanlik qobiliyatini tadqiq qilish” deb nomlangan to‘rtinchi bobida 2019-2022-yillar davomida o‘tkazilgan tajriba natijalari qiyosiy tahlili bayon qilingan.

Ishchanlik qobiliyati dinamikasini maxsus o‘rganishda nostandart sharoitlarda beriladigan yuklamalarni tadqiq qilish ancha qulay, chunki ishchanlik qobiliyatining optimal darajasini yanada yaqqolroq aniqlash va ishga kirishish hamda erta toliqish davrlaridan uni farqlay olish uchun doimiy shiddat va quvvatga ega ish zarur.

Shuni inobatga olib, biz ilk bor tajriba sinovlarini o‘tkazdik va bunda bevosita ixtisoslashtirilgan ish vaqtida boksning turli fiziologik funksiyalarini kompleks holda o‘rgandik. Biz tadqiqotlarimizni sport faoliyatining real sharoitlarida maksimal yaqinlashtirishga harakat qildik. Ushbu tajribaning asosiy maqsadi berilgan darajadagi faoliyat davomida o‘z-o‘zini boshqarish jarayonlarini aks ettiruvchi sportchi organizmidagi o‘rganilayotgan fiziologik funksiyalarning o‘rtacha variantlilik hamda sinxronlashuvini aniqlashdan iborat edi. Funksiyalarning bir tomonlama tebranishlari (sinxronlashuvning namoyon bo‘lishi), shuningdek, ularning variantlilik darajasining pasayishi yuqori ishchanlik qobiliyatining tayanch ko‘rsatkichlari hisoblanadi, ular “yassi qo‘lqoplar”da individual darsda ma‘lum bir jangovor harakatlarni bajarishda boksning uzluksiz ishining alohida me‘yorlari davomiyligini aniqlash uchun zarur.

Tadqiqotlar Termiz shahridagi TOPSTTMning boks sport zalida o‘tkazildi. Sinaluvchilar, boks bo‘yicha sport ustalari (Surxondaryo viloyati terma jamoasi a‘zolari–12 kishi) doimiy berilgan rejimda qat‘iy me‘yorlangan ish bajardilar. Ularga jangovor tik turish holatidan 30 daqiqa davomida imkon qadar aniqroq qopga zarbalar berish taklif etildi (harakatlar zarbasi 1 daqiqa ichida 30 zarba – jami mashg‘ulotlar ichida 900 zarba).

Zarbalar tasodifiy sonlar jadvali bo‘yicha tasodifiy tartibda 1 dan 3 soniya tanaffus bilan kutilmaganda paydo bo‘ladigan chiroqli signal bo‘yicha bajarildi. Shu maqsadda maxsus bokschi qoplarda (nishon markazi – diametri 20 sm. ga teng aylana), sinaluvchilar shu nishonga tegizishlari kerak bo‘ldi, uning orqasida chiroq yonardi. Har bir ikki daqiqalik uzluksiz ish me‘yoridan so‘ng 10 soniyddan iborat kichik dam olish tanaffusi berildi. Tanlangan yuklama modeli shu bilan tushuntirildiki, bokschi haqiqatdan ham 1‘45’’ dan 2‘15’’ chegarasida, ya‘ni o‘rtacha ikki daqiqa zarbalarni to‘xtovsiz bajara olishi mumkindir (dastlabki tajriba ma‘lumotlari). Ko‘rsatib o‘tilgan me‘yordan so‘ng sportchi mustaqil ravishda erkin kichik dam olishni, asosan qo‘llarni, ayrim hollarda oyoqlarni siltash uchun bajardi. Undan tashqari, 10 soniya. dam olish tanaffusi (takroriy yuklamalardan so‘ng) tabiiy sport faoliyati sharoitlarida o‘tkaziladigan individual dars jarayonida beixtiyor yuzaga keladigan kichik tanaffuslarni tahlil qilishda eng tipik bo‘lib hisoblandi. Shunday qilib, tajribada qo‘llanilayotgan ixtisoslashtirilgan yuklama modeli deyarli bir xil, barcha sinaluvchilar uchun odatiy edi.

Bokschining ishchanlik qobiliyatini aniqlash uchun quyidagi o'rtacha kattaliklar taxlil qilindi: yurak qisqarish va nafas olish sur'ati; harakat reaksiyasining umumiy vaqti (chiroqli signal yoqilgandan to zarba berish vaqtigacha); zarba berish aniqligi. O'rganilayotgan funksiyalar darajasini hisoblash yarim soatlik ish davri davomidagi 10 soniyalik vaqt bo'laklari bo'yicha amalga oshirildi.

Bir qator vegetativ va somatik funksiyalarning o'rtacha ko'rsatkichlarini kompleks tahlil qilish natijasida bokschilar ishchanlik qobiliyatining turli xil davrlari uchun xos bo'lgan haqqoniy o'zgarishlar qayd etildi. Sportchi ixtisoslashtirilgan faoliyatni bajarishda ishga kirishish, o'ziga xos barqaror holat va erta toliqish davrlarini ajratish imkoni paydo bo'ldi (2-jadvalga qarang).

Ishga kirishish davri turli xil fiziologik ko'rsatkichlarning ishchi darajaga o'tishi bilan, ularning variantligining o'sishi va ayrim funksiyalarning yetarlicha muvofiq emasligi, zarbalar aniqligi hamda harakat reaksiyasi vaqtining nisbatan yuqori variantligi bilan ifodalanadi.

Biroq zarbalar aniqligi yetarlicha yuqori va reaksiyaning ish vaqti ancha qisqa, bu bokschilarning yuqori darajadagi ishchanlik qobiliyatidan darak beradi.

Sport ustalarida barqaror holat davri funksiyalarining ichki tizim boshqaruvi (ayrim fiziologik ko'rsatkichlar variantligining pasayishi) va tizimlararo boshqaruvining yuqori darajasi bilan (turli xil funksiyalar ko'rsatkichlari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlarining oshishi), emotsional zo'riqishning pasayishi bilan ifodalanadi.

Biroq bu davrda beriladigan zarbalar aniqligi va harakat reaksiyasi vaqti kamayadi. Bu avval ko'rib chiqilgan kompleks ishchanlik qobiliyati ko'rsatkichining pasayishida yaqqol ko'zga tashlanadi va boksdan energiyani qayta ishlash jarayonlari emas, balki axborotni qayta ishlash, harakat amallarini dasturlash hamda harakatlarni boshqarish jarayonlari katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

Har bir ko'rsatkichning alohida turli ish davrlarida o'zgaruvchanligini qarab chiqish uchun yana 2-jadvalga murojaat qilamiz. Agar yurak qisqarish sur'ati ma'lumotlarini taqqoslasak, e'tirof etish mumkinki, tomir urish sur'ati darajasi ishga kirishish (IK) davrida daqiqaga $129 \pm 1,3$ zarba, optimal holat davrida (O) daqiqaga $141 \pm 0,3$ zarba va ish oxirida, ya'ni toliqish davrida (T) daqiqaga $149 \pm 0,5$ zarbani tashkil etdi. Shunday qilib, ish jarayonida tomir urish sur'ati o'sib bordi. Bunda (IK) va (O) davrlari orasidagi farq daqiqaga 11 zarba, (O) va (T) davrlari orasidagi farq esa daqiqaga 8 zarbani tashkil qildi. Ikkala olingan o'rtacha kattaliklar farqlari statistik ishonchli ($P < 0,001$).

2-jadval

Ixtisoslashgan yuklama paytida bokschi tanasining turli holatini fiziologik baholash (har bir ikki daqiqalik doimiy ish miqdoridan keyin 10 soniyali mikropauzalar bilan 30 daqiqa davomida 900 zarba)

Ko'rsatkichlar	Ish davrlari																		Davrlar orasidagi ishonchlik (P)	
	Ishga kirishish (IK)						Organizmining optimal holati (O)						Erta toliqish(T)							
	soni	min	max	M±m	σ	V%	soni	min	max	M±m	σ	V%	soni	Min	max	M±m	σ	V%		
Yurak urish soni (1 daq.)	120	84	156	129±1,3	14,0	10,8	600	126	162	141±0,3	6,3	4,5	210	126	168	149±0,5	7,6	5,1	0,999	0,999
Nafas olish chastotasi (1 daq.)	120	18	36	28,7±0,3	3,5	12,1	600	24	66	36,6±0,3	7,4	20,2	210	24	75	41,4±0,6	9,1	21,9	0,999	0,999
Harakatning ishlash davomiyligi reaksiy (m/soniyada)	300	567	1050	780±4,9	85,0	10,9	1500	550	950	759±1,7	66,6	8,7	525	700	1116	812±3,2	53,0	8,9	0,999	0,999
Aniq zarbalar (%)	20	15	90	67±4,5	20,1	30,0	900	35	100	58±0,4	10,8	18,6	35	13	87	56±3,0	17,6	31,4		

Izoh: IK-O – Ishga kirishganlik va optimal holatdagi farqi; O-T – optimal holati va toliqishi.

Shuningdek, shu darajadagi variatsiya koeffitsienti ham turli xil ish davrlarida ishonchli farq qildi. Agar (IK) davrida tomir urish sur'ati nisbatan yuqori darajada bo'lmaganda, u sezilarli pasaydi ($V\%=4,5\%$), ya'ni yurak qisqarish sur'ati ancha barqarorlashdi. Faoliyat oxirida variatsiya koeffitsienti yana oshdi ($V\%=5,1\%$).

